

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVNING USTUNLIKLARI

Usmonova Madinaxon Mansurjon qizi

Qo'qon universiteti MT2-24 talabasi

@madina06

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20425243>

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashga qo'yiladan talabalar, bola shaxsiga individual yondashuv tamoyillarining mazmun mohiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: maktab tayyorlash; individual yondashuv; "Ilk qadam" individuallashtirish; sub'ektivlik tamoyili; tanlash tamoyili; faoliyat; ijodkorlik; muvaffaqiyat tamoyili; farqli yondashuv tamoyili.

Maktabgacha ta'lim sog'lom har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoit yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi. So'ngi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya mazmuni shakli vosita va metodlarini yangilashga alohida e'tibor berilmoqda.

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim va tarbiya —bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi hisoblanadi

Maktabda o'qishga tayyorgarlik- bu maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilada bolalarga berilgan ta'lim-tarbiyaning muhim natijasidir. U maktab bolaga qo'yadigan talablar majmuyi orqali aniqlanadi. Bu talablarning o'ziga xos tomoni o'quvchining yangi ijtimoiy-psixologik o'rni, u bajarishi lozim bo'lgan yangi vazifa va burchlarni o'zida mujassam qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda eng oddiy matematik tasavvurlarni tarkib toptirish, nutqni o'stirish hamda savodni egallashga tayyorlanish yuzasidan o'tkaziladigan jadal ish bolalarni maktabda o'qishga maxsus tayyorlashning zarur darajasini ta'minlaydi. Maktabga qatnaydigan bola yangi turmush tarziga kishilar bilan o'zaro munosabatning yangi tizmiga, faol aqliy faoliyatga tayyorlangan bo'lishi darkor. U yangi jiddiy majburiyatlarni uddalashi uchun jismoniy rivojlanishda muayyan darajaga erishgan bo'lishi kerak. Bolaning maktabda (o'qishga irodaviy tayyorgarlik) umumiy tayyorligi mazmunida bir necha o'zaro bog'langan jihatlar mavjud bo'lib, ulardan muhimlari ma'naviy, irodaviy, aqliy, jismoniy tayyorgarlikdir.

Maktabga borish bolalarning hayotida juda katta voqeadir. Maktab hayot bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi. Maktab davrida bolalarning asosiy faoliyatlari o'zgaradi. Endi bolalarning asosiy faoliyatlari, asosiy vazifasi va ijtimoiy burchi qilish bo'lib qoladi.

6-7 yoshli bolalar uchun yangi faoliyat bo'lgan o'qish ulardan yangi sifat, yangi xususiyatlarga ega bo'lishlarini talab etadi. O'qish faoliyati uchun bolalarda barqaror diqqat, o'tkir zehn, mustaqillik, ishchanlik va batartiblik xislatlari bo'lishi, kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotidan maktabga o'tishlari natijasida kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida ham birmuncha o'zgarish yuz beradi. Chunonchi maktab yoshiga yaqinlashgan bolalar MTTda "katta" deb hisoblanar edilar. Maktabga o'tgach, ular yana "eng kichkinalar" qatoriga tushib qoladilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash murakkab jarayon bo'lib, unda har bir bolaga individual yondashuv talab etiladi. Bu yondashuv maktabgacha ta'lim va tarbiyaga oid me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Jumladan, "Ilk qadam" davlat o'quv

dasturida bolaning huquqi, individualligi va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limva tarbiya jarayonining tamoyillari qatorida sanab o'tilgan. Dasturda barcha bolalar katta imkoniyat egasi bo'lib dunyoga kelishi va har biri tug'ma iste'dodga ega hamda har bir bola o'ziga xos individual ekanligi ta'kidlangan. Ko'pincha bolalarning ta'lim faoliyatida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bolalarga nisbatan insonparvarlik, hurmat bilan munosabatda bo'lishni, vazifasini, birinchi navbatda, guruhning ishlashga hissiy-ijobiy munosabatini yaratishda ko'rishini anglatadi. “Sevimli mashg'ulotlar”, turli o'yinlar va mustaqil ijodiy faoliyat turlari keng qo'llaniladi. Bularning barchasi, albatta, ta'lim jarayonini yanada qiziqarli, jozibador, yanada samarali qiladi, ammo uni shaxsga yo'naltirilgan deb hisoblash uchun hali asos yo'q.

Ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish uchun guruhda xayrixoh ijodiy muhitni yaratish etarli emas. Shaxsga individual yondashuvga yo'naltirilgan pedagogikaning mohiyati bolalarning sub'ektiv tajribasiga, o'z hayotiy tajribasiga doimiy murojaat qilishdir. Eng muhimi, har bir bolaning o'ziga xosligini tan olish zarur. Bundan tashqari, pedagogdan bir qator tanish kasbiy qarashlarni ko'rib chiqish talab etiladi. Bugunga kunga kelib, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari uchun maktabgacha ta'limning butun tizimini qayta qurish, nafaqat bola bilan, balki makt ta'limning barcha sub'ektlari bilan aloqa va o'zaro munosabat usullarini o'zgartirish zaruriyati yuzaga keldi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining asosiy vazifasi bolalar bilan ishlashni tashkil etish usullari va shakllarini, shaxsning potensial imkoniyatini ochib berish maqsadiga eng mos keladigan innovasion pedagogik texnologiyalarni tanlashdir.

O'quv jarayonini individuallashtirish va differensiallashtirish muammolari XX asrdan boshlab xorijiy manbalarda rus olimlari, P.P.Blonskiy, I.I.Rezvitskiy, B.M.Teplovoy, I.S.Yakimanskaya, I.P.Podlas'ny va boshqalar o'z fikr va tavsiyalarini berganlar. Xususan, I.P.Podlas'ny pedagogikaning eng muhim tamoyili individual yondashuv hamda ta'limda individuallashtirish masalasi muhim ekanligini ta'kidlaydi. Olim ta'limni individuallashtirish insonning shaxsiy xususiyatlari va yashash sharoitlarini chuqur bilishga asoslanadi va inson rivojlanishini boshqarish imkonini beradi, deb hisoblaydi

Individual yondashuv – bu pedagogning e'tiborini bolaning ajralmas shaxsiga, uning nafaqat intellektual qobiliyatlari va fuqarolik mas'uliyat hissini rivojlantirishga bo'lgan e'tiborini, balki hissiy, estetik, ijodiy moyilliklari va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lgan ruhiy shaxsni rivojlantirishga qaratishdir. Ta'limning asosiy qadriyatining bunday e'tirof etilishi shaxsning o'ziga xos shakllanishidir. Biz har bir bolaga uning xususiyatlarini, hayotiy qadriyatlarini, intilishlarini aniqlash asosida o'zlarining rivojlanish yo'llarini tanlash huquqini berishimiz kerak.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim faollik markazida tarbiyalanuvchining o'zi, ya'ni bolani shaxs sifatida – uning xohish-istaklari, niyatlari, maqsadlari, noyob hayot tajribasi ekanligi taxmin qilinadi. Shu munosabat bilan ta'lim jarayoni ta'lim “bilimlarni kattadan bolaga o'tkazish” modelidan, “bola tashabbuslari ma'qullanadigan va bola ta'lim jarayonida faol ishtirok etadigan” modelga yo'naltirilishi kerak.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning maqsadi: bolani o'ziga xos shakllantirish uchun zarur bo'lgan o'zini-o'zi anglash, rivojlantirish, moslashtirish, boshqarish, himoya qilish, tarbiyalash mexanizmlarini kiritishdan iborat. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeli – bizning ta'lim tizimimizga tanish bo'lgan bolaga ta'lim va intizomiy yondashuvni engishga, pedagoglarni bolalar bilan hamkorlik ko'nikmalariga, shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalarga ega bo'lishdir.

Maktabgacha ta'limda bola shaxsiga individual yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat

O'zini namoyon qilish tamoyili

Har bir bolada o'zining intellektual, kommunikativ, badiiy va jismoniy qobiliyatlarini namoyon qilish ehtiyoji bor. Bolaning tabiiy va ijtimoiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish istagini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash juda muhimdir.

Individuallik tamoyil

i. Bola shaxsiyatining individual shakllanishi uchun sharoit yaratish ta'lim tashkilotining asosiy vazifasidir. Nafaqat bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish, balki uning kelgusi rivojlanishiga har tomonlama hissa qo'shish kerak.

Sub'ektivlik tamoyili.

Individuallik faqat sub'ektiv kuchlarga ega bo'lgan va ulardan faoliyat, aloqa va munosabatlarni qurish uchun mohirona foydalanadigan kishilarga xosdir. Bolaga guruh hayotidagi haqiqiy sub'ektiga aylanishiga, shaxsiy tajribasini shakllantirish va boyitishga hissa qo'shish kerak

Tanlash tamoyili.

Tanlovsiz bolaning individual xususiyatlari va sub'ektivlikni rivojlantirish, qobiliyatlarini namoyon qilish mumkin emas. Bola doimiy ravishda tanlashi, ta'lim jarayonini tashkil etishning maqsadi, mazmuni, shakllari va usullarini tanlashda sub'ektiv vakolatlariga ega sharoitda yashashi va tarbiyalanishi pedagogic jihatdan ma'quldir. Aynan buning uchun maktabgacha yoshdagi guruhlarda ochiq rivojlantiruvchi muhit (rivojlantirish markazlari) zarur.

Faoliyat, ijodkorlik va muvaffaqiyat tamoyi

Bolani muvaffaqiyatga undash kerak. Bu bolaning faol hayotiy pozitsiyasini rag'batlantirish maqsadida o'yin faoliyatiga kiritishdir. Bolaning o'yinida va samarali faoliyatida ijodkorlikka maksimal darajada yo'naltirish, o'z ijodiy faoliyatda tajribaga ega bo'lishi nihoyatda muhimdir. Shaxsiy va jamoaviy ijodiy faoliyat bolaning individual xususiyatlarini aniqlash va rivojlantirishga imkon beradi. Ijodkorlik tufayli bola o'z qobiliyatlarini ochib beradi, o'z shaxsiyatining “kuchli tomonlarini” bilib oladi.

Faoliyatning muayyan turida muvaffaqiyatga erishish bola shaxsiyatining ijobiy tomonlarini, “Men” konsepsiyasini shakllantirishga yordam beradi. Ishonch va qo'llab-quvvatlash tamoyili. Pedagogik faoliyatni insonparvarlik, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya texnologiyalari bilan boyitish muhimdir. Bolaga ishonch, o'zini-o'zi anglash va o'zini “men”ligiga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash, ortiqcha talablar va haddan tashqari nazorat o'rnatmaslik kerak. Tashq ta'sirlar emas, balki ichki motivatsiya bolani o'qitish va tarbiyalashning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Farqli yondashuv tamoyili –tarbiyalanuvchilarning shaxsiyatini takomillashtirishda samarali pedagogik yordam vazifalari hal qiladi,

tarbiyalanuvchilarning psixofizik, shaxsiy qobiliyatlari va imkoniyatlarin yordam beradigan maxsus pedagogik vaziyatlarni yaratishga yordam beradi. Bolaning tabiatiga, uning sog'lig'iga, aqliy va jismoniy tuzilishiga, qobiliyat va moyilliklariga, idrokiga qarab rivojlanishidir.

Ushbu tamoyillarni amalga oshirish umumiy psixologik makonni yaratishni, ta'lim jarayonini o'yin orqali va bolalar bilan ishlashning shakli sifatida, munozaralarni, suhbatlarni, qo'shma kuzatuvlar va eksperimentlarni tashkil qilishni o'z ichiga oladi. Tarbiyachining oldiga qo'yilgan vazifasi samarali muloqot tamoyillaridan foydalanishdan iborat.

Xulosa- qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda individual yondashishni tadbiiq etish zamonaviy ta'lim tendensiyalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Individual yondashishning mohiyati shundaki, unda har bir bolaning individual psixologik xususiyatlariga o'zlashtirish imkoniyatlarini hisobga oladigan o'quv-bilish faoliyatini samarali boshqarish nazarda tutiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 132-son Qarori. 2020 yil. 9 mart.
3. “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi / takomillashtirilgan ikkinchi nashri. Toshkent, 2022 y.
4. Mansurova S.R. Ta'lim jarayonini individuallashtirishda neyropedagogik diagnostikaning tutgan o'rni.
5. “Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish” metodik qo'llanma. Mualliflar: Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V., Mikailova U.T va boshqalar. Toshkent-2020.